



## BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING IJROCHILIK KOMPETENSIYASINI METODIK TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

**Muallif:** Ro'zimurodov Ilyos Azamat o'g'li<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Xalqaro Nordik universiteti mustaqil izlanuvchi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14410455>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchisining ijrochilik kompetensiyasini metodik takomillashtirishning bir qator uslubiy muammolari va ularning yechimlari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqa, ta'lim, afg'on rubobi, bo'lajak o'qituvchi, talaba, metodik tayyorgarlik, kasbiy tayyorgarlik.

Afg'on rubobi vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijrochilik kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi talabalarning ham aqliy ham kasbiy ijrochilik qobiliyatlarni rivojlantirish talaba shaxsining ijrochilik kompetensiyasini rivojlanishi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida sodir bo'ladi. Biroq, bunday bilimlarni o'zlashtirish jarayoni va rivojlanish jarayoni o'zaro bog'langan va ta'sir kuchiga ega bo'lsada, ular bir-biriga mos kelmaydi [6]. O'zlashtirilgan bilimlar bilan musiqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining intellektual rivojlanish darajasi o'rtasidagi doimiy ziddiyat tafakkur rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi [6]. Bilimlar qat'iy tuzilgan tizimda yetkazilishi kerak, bunda har bir keyingi konsepsiya avvalgisidan kelib chiqadi va oldingisi keyingisida o'zining keyingi rivojlanishini topadi. Faqatgina ijrochilik texnikasi bilan bog'liq materialni tizimli o'zlashtirish talabalarning bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni, ular oldida turgan muammolarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyatini va faqat bilimlarni tizimli o'zlashtirish va amaliy faoliyatda qo'llash o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni ta'minlashi mumkin, ijobiy natijalardir. Shunday bo'lsada, ular ijrochilik kompetensiyasini o'zlashtirishi barobarida, o'rganish jarayonida o'ziga xos ijrochilik malakasini o'zlashtirib boradi [4].

Tadqiqot ishi jarayonida afg'on rubobi vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijrochilik kompetensiyasini metodik takomillashtirishning keyingi shartlaridan biri bu – ijrochi talabalarning o'z bilimi doirasida ijrochilik repertuari bo'lish lozimligini ko'rsatdi. Ushbu ijrochilik repertuarini boyitishda avvalam bor, talabaning qiziqishi va xarakter xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zi yoqtirgan, o'zi eshitgan, ijro etgan va boshidan kechirgan voqea - xodisalarning mazmun mohiyatidan kelib chiqib, uni to'ldirib borish talab etiladi. Bu to'planishlar energiya akkumulyatori kabi doimo oldinga harakat qilish uchun zarurdir [3]. Musiqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabasining ijrochilik kompetensiyasi haqidagi bilimi va ijrochilik texnikasi qanchalik chuqurroq bo'lsa, uning

atrofida turgan va uni tinglagan auditoriyaning tasavvuri va musiqiy tafakuri shunchalik boy bo'ladi. Tabiiyki, biz uning ustida ishtiyoq va muhabbat bilan ishlaymiz va shunchalik uning mazmun mohiyatini ochib berish uchun harakat qilamiz [4]. Demak, musiqiy ijrochilik faoliyati talabalarning aqliy rivojlanish darajasining ko'rsatkichi bo'lib, tizimli bilish tamoyiliga asoslanadi.

Musiq ijrochilik bilimlar tizimini o'rganishga oid tadqiqotimizda "musiqiy bilim", "ijrochilik kompetensiyasi" tushunchalarining talqinini asos qilib olamiz [5]. Nazarimizda, musiqiy bilimlar tarixiy taraqqiyot jarayonida to'plangan, umumlashtirilgan, ijrochilik kompetensiyasi esa musiqa asarlari va musiqa madaniyati obyektlarini qurish uchun atamalar, tushunchalar, qoidalar va qonuniyatlar ko'rinishida mustahkamlangan musiqa amaliyotining yutuqlari sifatida e'tirof etiladi. Ularning rivojlanishi musiqa ijrochisi faoliyatining asosiy, juda muhim kognitiv va kasbiy jihati hisoblanadi.

Musiqa pedagogikasi sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar (Q.Panjiyev) tomonidan bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarida bo'lajak musiqa o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmunini tanlash va uning tuzilishi muammosini o'rganib, musiqa va ijro bilimlari tizimining quyidagi elementlarini ajratib ko'rsatadilar: musiqiy bilim; musiqiy-nazariy bilimlar; maxsus bilimlar [6].

Musiqa madaniyati ta'limi tizimida musiqa ijrochilik kompetensiyalarini tikomillashtirish birinchi navbatda madaniy bilim, ikkinchidan kasbiy qobiliyatni takomillashtirishning metodik ta'minotini yaratishga imkon beradi [2]. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy musiqa ijrochiligi faoliyatidagi madaniyatshunoslik bilimlari turli turli cholg'ular ijrochiligi maktablarining o'ziga xos xususiyatlari va o'ziga xos ko'rinishlari va u ijro etgan musiqiy asarlarning yo'nalishlarida harakat qilish, tarixiy davrni, yozilish uslubini, bajarilgan asar mavzusini tushunish imkonini beradi. Mavjud madaniy bilimlarga asoslanib, bo'lajak musiqa o'qituvchisi kasbiy ijrochilik shaklda, unda ijro etiladigan o'zbek musiqa asarlarini talabaga u yoki bu musiqa asarining nima uchun bunchalik go'zal ekanligini va uning madaniy qiymati nimada ekanligini tushuntirishi mumkin.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining musiqa ijrochilik faoliyatidagi musiqiy-nazariy bilimlar musiqa san'atining umumiy qonuniyatlarini, tahlilning turli turlarini (nazariy, tuzilmaviy, musiqiy-ifodali vositalar tahlili, texnik va tovush masalalari) tushunish bilan bog'liq. Afg'on rubobi cholg'u ijrochisi musiqaning elementar nazariyasi, solfejo, garmoniya, polifoniya, musiqiy shakllarni tahlil qilish sohasidagi musiqiy-nazariy bilimlar musiqiy ijrodagi onglilikka, maqsadlilikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi [6]. Musiqiy-nazariy bilim "qurilish materiali" bo'lib, uning asosida musiqa asari matnini dekodlash amalga oshiriladi [3].

Afg'on rubobi vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijrochilik kompetensiyasini metodik takomillashtirishda agar cholg'u ijrochi zarur bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollanmagan bo'lsa, ijodiy musiqiy ijro jarayoni bo'lib ketishi mumkin [3]. Musiqa ijrochilik faoliyatini amalga oshirishning butun qiyinligi shundaki, bilim faoliyatning asosi hisoblanadi, ammo allaqachon ma'lum bo'lgan bilimlarni o'zlashtirish va yangi g'oyalar, tasvirlar yaratish va boshqa aqliy jarayonlar sodir bo'ladi va turli shakllarda yuzaga keladi [6].

Musiqashunoslar maxsus bilimlarga katta e'tibor berishadi. S.E. Feynberg maxsus bilimlarni musiqiy ijrochilik faoliyatini anglashda o'ziga xos "fikrlash ko'prigi" deb

hisoblaydi [3]. Afg'on rubobi vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijrochilik kompetensiyasini metodik takomillashtirish musiqa ijrochisining maxsus bilimlarini musiqiy cholg'uning ijrochilik an'alari texnikasi bilan bog'laydi [4]. "Musiqiy cholg'uning ijro texnikasi deganda cholg'u ijrochiligi sohasida elementar hamda texnik uslubiy bilimlarga ega bo'lish tushuniladi. Afg'on rubobi bo'yicha ko'p yillik ijro texnikasiga ega bo'lgan G.Ergashevning ijrochilik texnikasining elementar uslubiy bilimlar quyidagilarga asoslanadi. Ya'ni, afg'on rubobida ijrochilik malakalarini takomillashtirishda avvalam bor, musiqa asari ustida bosqichma-bosqich ishlash, turli ijro texnikalarda (shtirx, zarb, dinamik, rez va boshqalar) ijro etishning asosiy tamoyillarini bilish, cholg'u torlarini chertish, tebratish va tovushda barmoq tamoyillaridan foydalanish va boshqalar [4]

Maxsus bilimlar musiqiy asarning musiqiy va ijrochilik fikrini rivojlantirishga yordam berdi, chunki bu bilim doimiy harakatda [5]. Ular cholg'u ijrochisi yoki asar bastakorining niyatini to'g'ri yetkazish istagidan iborat.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyati musiqa-pedagogik faoliyat bilan bog'liq bo'lganligi sababli, bizning fikrimizcha, musiqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabasining kelajakdagi kasbiy faoliyatida pedagogik bilimga muhtojdir.

Pedagogik bilimlar biz tomondan uslubiy, nazariy, metodik va texnologik bilimlar majmui sifatida taqdim etildi.

Metodik va uslubiy bilimlar ilmiy bilish metodologiyasi bilan bog'liq bo'lib, tadqiqot jarayoni haqidagi bilimlar bilan cheklanmaydi va faqat falsafiy-pedagogik metodologiya doirasiga kiritilmaydi. Ular ichki aks ettirish, faoliyatni amalga oshirish metodologiyasi va mantiqi bilan chambarchas bog'liqligi uchun ham uni amaliyotda, ko'p yillik ijrochilik tajribalari asosida ortiradi.

Nazariy-uslubiy bilimlar zamonaviy ilmiy-pedagogik bilimlar tuzilmasini aks ettiradi va zamonaviy ilmiy nazariyalar, g'oyalar, tamoyillar asosida tashkil etiladi, bo'lajak musiqa o'qituvchisiga pedagogik voqelikni har tomonlama qamrab olish va kasbiy muammolarni samarali hal etish imkonini beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi"gi Qonuni. Xalq so'zi. T. 2020 -24-sentabr. B. 1-4

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shma chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli qarori lex.uz(uz) doks 5849580.

Alaviya I.A. "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari" Toshkent. Fan, 1974 y. B. -221.

Abdullin E.B. Teoriya i praktika muzqalnogo obuchenie v obsheobrazovatelnoy shkole. M. 1983.

Ibrohimov O.A. "O'zbek xalq musiqa ijodi" (metodik tavsiyalar 1-qism), Toshkent. 1994-y. B. 62.

Panjiyev Q.B. O'zbek xalq qo'shiqlari vositasida bo'lajak musiqa o'quvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Ped. fan. dok. .. diss. -T., 2022. - 248 b.